

**Yunusov Arman Fayzulla o'g'li**

*Kamoliddin Behzod nomidagi*

*Milliy rassomlik va dizayn instituti*

*muzeysenoslik: muzey menejmenti*

*va madaniy turizm yo 'nalishi*

*2-kurs talabasi*

### **Maqola**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston xalq artisti Yunus Rajabiy hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan uy-muzeyiga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotning maqsadi Yunus Rajabiy uy muzeyini tahlil qilish asosida o'zbek xalq o'g'loning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** ovoz tembri, ruhiyat, kashkul-chelak, ekspozitsiya.

Milliy musiqamiz fidoyisi, ustoz san'atkori Yunus Rajabiyning maqom san'atimizga qo'shgan yuksak hissasi munosib e'zozlanmoqda. O'zbekiston xalq artisti, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, akademik Yunus Rajabiy serqirra ijodiy faoliyati bilan XX asr o'zbek musiqasi tarixida o'chmas iz qoldirdi.

O'zbekiston Hukumatining 1989-yil 13-sentabrdagi 301-sonli qarori va Madaniyat ministrligining 1989-yil 28-sentabrdagi 385-sonli buyrug'iga asosan Yunus Rajabiy 1957-1976-yillarda yashab ijod etgan uy (Toshkent, Yunus Rajabiy ko'chasi, 20-uy)da muzey tashkil etilgan.<sup>4</sup>

Muzeyning umumiy maydoni 484 kv.m., ko'rgazma maydoni 181 kv.m. bo'lib, 6 ta ko'rgazma xonasi mavjud. Uning har biri ma'lum voqelikni yoritishga bag'ishlangan: "Yoshlik va o'smirlilik davri", "Me'morial xona", "O'zbek xalq musiqasi", "Shashmaqom", "Abadiyat", "Musiqa tinglash va filmlar ko'rish" xonalari. Muzeyda 6700 ga yaqin eksponat saqlanadi. Shulardan 847 tasi muzey ekspozitsiyalarida ko'rsatilgan. Ekspozitsiyadagi XIX asr boshlarida tanbur chizig'ida Komil Xorazmiy tomonidan yozilgan o'zbek maqomlarining eskicha nota yozuvi kitobi, Yunus Rajabiy o'zi chalgan nay hamda pianino, Yunus Rajabiy yozgan 12 jiddli kitob qo'lyozmalari, 5 jildi "O'zbek xalq musiqasi", 6 jildi "Shashmaqom", "Musiqa me'rosimizga bir nazar" nomli musiqiy risolasi, kiyim-boshlari, konsert kiyimlari, o'zbek xalq cholg'u sozlar kolleksiysi, o'z oilasi, ustozlari, shogirdlari va safdoshlarining moybo'yoqda ishlangan portretlari, fotosuratlari uy-muzeyining noyob eksponatlar hisoblanadi.<sup>5</sup>

Uy-muzey Yunus Rajabiyning 100 yillik yubileyi munosabati bilan 1997-yili rasman ochilgan. Mazkur muzey binosi 2 qavatli bo'lib, binoning old tomoniga Yunus Rajabiyning haykali o'rnatilgan. Muzeyning birinchi qavatida memorial va cholg'u sozlar ekspozitsiyasi xonasi, mehmonxona joylashgan. Memorial xonada Yunus Rajabiyning mebellari, radio, ustki kiyimi, stolining ustida esa musiqa sozi, notalari, ruchka, choynak-piyolalari

<sup>4</sup> Rajabiy, Hasan. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>5</sup> [http://www.yakkasaray.uz/Yunus\\_rajabiy.html](http://www.yakkasaray.uz/Yunus_rajabiy.html)

qo'yilgan. Uning hayotligidagi muhit saqlanib qolgan. Yunus Rajabiy uy-muzeyining direktori Hasan Rajabiydir.

Muzeyda maxsus katta zal bo'lib, u o'zbek maqomiga bag'ishlanadi. Unda O'zbekiston madaniyati musiqa tarixiga doir nodir hujjatlar – qo'lyozmalar, rasmlar va boshqalar bor. Bu yerda mehmonlar va sayyoohlar uchun maxsus konsertlar uyushtiriladi. Unda o'zbek musiqasi mashhur artistlar tomonidan ijro etiladi. Muzeyda Yunus Rajabiy va boshqa mashhur musiqachilar tomonidan yaratilgan kuylarni tinglash va audio kassetalarini sotib olish, qo'shiqchi haqidagi videofilmni tamosha qilish mumkin.

Uy-muzeyning "Yoshlik yillari" bo'limidagi: kashkul-chelak (Yunus Rajabiy oilasida ishlatalgan, XIX–XX asr), shahodatnama (Yunus Rajabiy Toshkent musiqa texnikumida o'qiganligi haqida), Yunus Rajabiy "Bahor" musiqiy asari qo'lyozmasi, 1926-yilga tegishli Yunus Rajabiyning Samarqandda mashhur hofizlar va sozandalar bilan tushgan fotosurati, guvohnoma (O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi), safoyil, obdasta; "San'at xonasi" bo'limidagi: beqasam to'n (Yunus Rajabiy Maqom ansambli bilan konsertlarda kiygan), adres to'n, "Zaynab va Omon" operasi programmasi, Yunus Rajabiya 1953-yilda berilgan "O'zbekiston xalq artisti" nishoni, telegramma (Yunus Rajabiyni 70 yosh yubileyleri bilan SSSR Radio va Televideniesining vaziri N.Mesyasev tabriklagan) fortopiano (Yunus Rajabiy 1930 yillarda sotib olgan); "Fond xonasi" bo'limida: Yunus Rajabiyning qo'lyozmalari ("Layli va Majnun" musiqali dramasi), qamchin (Yunus Rajabiyning rafiqasi Qumri Mutualovaning otasidan esdalik qolgan, XIX asr oxiri XX asr boshlari); "Shashmaqom xonasi" bo'limida: "Шест музыкальных поэм" kitobi (1924 yil Buxoroda Fitrat va N.Mironov tahririda nas'hr ettirilgan), "Kichik bayoz" kitobi (XIX asr oxiri XX asr boshlari, Forsiy g'azallar to'plami (XVIII asrning ikkinchi yarmi); "Abadiyat xonasi" bo'limida: ashula daftari (Yunus Rajabiy yonida olib yurgan), Yunus Rajabiy uy-muzeyini barpo yetilis'hida bir guruh san'atkorlarning imzosi qo'yilgan sahifalar kabi noyob buyumlar tashrif buyuruvchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

Bugungi kunda Yunus Rajabiy uy-muzeyida ziyoratchilar iltimoslariga binoan taniqli san'at ustalari jonli ijrosini tinglashlari uchun imkoniyatlar yaratilgan. Uy-muzey ziyoratchilari mashhur hofiz va sozandalarning jonli ijrolarini tinglab hamda disk yozuvlaridan xarid qilishlari mumkin.

Ushbu muzey Toshkentdag'i uy-muzeylari orasida eng ko'zga ko'ringan, muzey ishini yaxshi tashkil etgan, juda ko'p sonli tomoshabinlarga xizmat qiladigan, yaxshi ekskursiya ishlarini olib boradigan muzeylar sirasiga kiradi. Muzeyga 360.vrmuseum.uz internet sayti orqali 3D vizual sayohat qilish imkoniyati ham mavjud.<sup>6</sup>

Xulosa qilib aytganda Yunus Rajabiy muzeyi atoqli bastakorning boy musiqiy merosini asrab-avaylash va yetkazishda muhim o'r'in tutadi. Mazkur muzey tashrif buyuruvchilarga Yunus Rajabiy hayoti va ijodi bilan tanishish, u yashab, ijod qilgan davr muhitiga sho'ng'ish uchun noyob imkoniyat yaratadi.

<sup>6</sup> <http://360.vrmuseum.uz/museum13/>

REFERENCES:

- 1.[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yunus\\_Rajabiy\\_uy-muzeyi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yunus_Rajabiy_uy-muzeyi)
- 2.. <https://oyina.uz>